

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

**GUMANITAR FANLAR FAKULTETI
O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI KAFEDRASI**

MUXTAROVA SHAXNOZA MASHRABOVNA

ONA TILI O‘QITISH METODIKASI

O‘QUV QO‘LLANMA

Toshkent – 2024

O'quv qo'llanma 60110700 – O'zbek tili va adabiyoti bakalavriat ta'lim yo'nalishi o'quv rejasidagi “Ona tili o'qitish metodikasi” fani o'quv dasturi asosida yaratilgan.

Ona tili o'qitish metodikasi kursi uchun bakalavriat yo'nalishi bo'yicha yaratilgan mazkur o'quv qo'llanmada ona tili ta'limi jarayonini tashkil etishning huquqiy-me'yoriy asoslari, ona tilini o'qitish metodlari tasnifi, turlari va mazmuni, til ta'limida innovatsion pedagogik texnologiyalar, ona tili ta'limi vositalari, umumiy o'rta ta'lim maktablarining “Ona tili” darsliklarining tuzilishi va mazmuni, fonetika o'qitishning maqsadi, vazifalari va tamoyillari, leksikologiya o'qitishning maqsadi, vazifalari va tamoyillari, leksikografiya o'qitishning maqsadi va vazifalari, morfemika va morfologiyani o'qitish metodikasi, morfologiya o'qitishning maqsadi, vazifalari va tamoyillari, sodda va qo'shma gapni o'qitish metodikasi, punktuatsiya o'qitish metodikasi, nutq uslublari ustida ishlash metodikasi, yozma ishlarni tashkil etish metodikasi, ona tilidan sinfdan tashqari ishlar haqida ma'lumotlar berilgan.

Ushbu o'quv qo'llanma oliy ta'lim muassasalari 60110700 – O'zbek tili va adabiyoti bakalavriat talabalarining “Ona tili o'qitish metodikasi” fanidan egallayotgan bilim va ko'nikmalarini boyitishga yaqindan yordam beradi. Mazkur o'quv qo'llanmadan bakalavriat ta'lim yo'nalishi talabalari, magistrantlar foydalanishi mumkin.

Taqrizchilar:

Sh.Almamatova, Jizzax davlat pedagogika universiteti O'zbek tilini o'qitish metodikasi kafedrası dotsenti, filologiya fanlari nomzodi.

O'.Saidov, Chirchiq davlat pedagogika universiteti O'zbek tilshunosligi kafedrası mudiri, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

O'quv qo'llanma Chirchiq davlat pedagogika universiteti Kengashida 2025-yil, 28-martdagi 10-sonli bayoni bilan tasdiqlandi va nashrga taqdim etildi.

ONA TILI TA'LIMI JARAYONINI TASHKIL ETISHNING HUQUQIY-ME'YORIY ASOSLARI

Reja:

1. "Ona tili o'qitish metodikasi" – pedagogik fan sifatida.
2. "Ona tili o'qitish metodikasi" fanining obyekti, maqsad va vazifalari.
3. Ona tili ta'limi jarayonini tashkil etishning huquqiy-me'yoriy asoslari.

Tayanch so'zlar: *metod, metodika, metodologiya, bilim, malaka, ko'nikma, me'yoriy-huquqiy hujjat, davlat ta'lim standarti, dastur, elektron o'quv adabiyotlar, o'quv qo'llanma.*

Insoniyat tarixida ta'lim olishga ehtiyoj tug'ilgan kundan boshlab, nimani o'rgatish, qancha o'qitish, qanday usullar bilan o'qitish kerak kabi savollar didaktika oldida turgan qadimiy va dolzarb masalalardan sanaladi.

"Metod", "metodika" va "metodologiya" atamalari umumiy o'zakka ega: yunoncha *methodos* "biror narsaga yo'l" demakdir. Darhaqiqat, biror harakat, amaliy va aqliy faoliyat ma'lum usulda bajariladi. Ammo bunday harakat vositasida biror narsa, hodisaning tub mohiyatini bilish uchun avval nimani izlash va qanday izlashni belgilab olish talab qilinadi. Shu sababli *methods* "biror narsaga yo'l", *logos* "ta'limot, nazariya" so'zi bilan boyitilgan va "metodologiya" atamasi paydo bo'lgan. Demak,

Metod biror ishni bajarish, amalga oshirish, ado etish uchun amalga oshirilgan harakat, amaliy va aqliy faoliyatning ma'lum usuli, yo'l-yo'rig'idir.

Metodika deganda tadqiq manbayi (o'rganish obyekti) haqida ilmiy bilim hosil qilish usul (yo'l-yo'riqlari) tushuniladi. Shuning uchun falsafa bo'yicha darsliklarda ham, "O'zbek tilining izohli lug'ati (O'TIL)"da ham metodika biror ishni bajarish, amalga oshirish, ado etish metodlarining, usullarining yig'indisi deb ta'riflanadi¹.

Biz **ona tili o'qitish metodikasi** deganda ta'lim o'choqlarida ona tilini o'qitish usullari, yo'l-yo'riqlarining umumlashmasini nazarda tutamiz.

Metodologiya – muayyan voqelikni bilishning asosiy yo'llari, usullarini belgilab beruvchi ta'limot, nazariyadir. Metodologiya izlanuvchiga narsa (o'rganish obyekti)da nimalarni izlashi, topishi, izohlashi, ochib berishi lozimligini ko'rsatib turadi. Bu uning yo'lchi yulduzi, qayerga borishi va kelishi lozimligini

¹ Ne'matov H., Shirinova N. Tilshunoslikning falsafiy masalalari. –Buxoro: Universitet, 2005.; Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5-томли. I том.–Т.: ЎЗМЭ, 2005. 461-бет.

ko'rsatib turuvchi mayog'idir.(H.Ne'matov) Dialektik bilish nazariyasi barcha fanlar uchun metodologik asos vazifasini bajaradi².

“Ona tili o‘qitish metodikasi”– pedagogik fan sifatida. O‘zbek tili O‘zbekiston Respublikasining davlat tilidir. Fan yutuqlari, urf-odat, an‘analar davlat tili vositasida e‘zozlanadi, asraladi, avloddan avlodga meros qilib qoldiriladi. Hayotning barcha sohasida to‘plangan ijtimoiy tajriba ona tili orqali o‘zlashtiriladi, ona tili vositasida o‘rgatiladi. Shu tufayli ona tili birinchi muallim sanaladi. Maktabda ona tilini o‘quv predmeti sifatida o‘qitish uning ta’lim-tarbiyaviy ahamiyatini yanada oshiradi.

Ona tili predmeti o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, ularning fikrini yuzaga chiqarish shakllari (og‘zaki va yozma nutq), vositalari (tovush, harf, so‘z, gap, matn), usullarini (aytish va eshitish, gapirish va tinglash, o‘qish va yozish) egallashlari bilan qo‘shib olib borishning yetakchi omilidir³.

“Ona tili o‘qitish metodikasi” pedagogik sikldagi fanlardan biri bo‘lib, u didaktika bilan uzviy bog‘langan va xususiy didaktika sirasidagi fanlardan biri sanaladi. Chunki umumiy didaktikaning barcha masalalari bevosita xususiy didaktika, shu jumladan, ona tili ta’limi bilan bevosita aloqadordir. Ona tili didaktikasi pedagogik fanlar sirasiga kirib, maktabda ona tili o‘qitishning mazmuni, mundarijasi, yo‘nalishlari, tamoyillari, vositalari, tashkiliy shakllarini o‘rganadi⁴.

“Ona tili o‘qitish metodikasi” o‘ziga xos mustaqil fan sanaladi. Chunki bu fan maktabda ona tili “Nima uchun o‘qitiladi?”, “Nega shunday o‘qitiladi?”, “Nima o‘qitiladi?”, “Qanday o‘qitiladi?”, “Ona tili ta’limi qanday tashkiliy shakllar vositasida amalga oshiriladi?” degan savollarga javob izlaydi.

Nima uchun o‘qitiladi? Shu savol asosida maktabda ona tili o‘qitishning maqsadi qayd etiladi. Maktabda ona tili ta’limining asosiy maqsadi bolalarda nutq madaniyatini tarbiyalashdir. Nutq madaniyati tarkiban bilim, ko‘nikma, malaka, ijodiy faoliyat tajribasi va tilga oid munosabatlar tizimidan iborat.

Nega shunday o‘qitiladi? Bu savol ona tilini o‘zlashtirish jarayonida rioya qilinadigan qonuniyatlar, til o‘qitishning o‘zigagina xos me‘yoriy talablar — xususiy didaktik hamda (prinsip)lar bilan daxldordir. Qonuniyatlar ona tili materiallarini o‘zlashtirish jarayonida takrorlanib turadigan universal bog‘lanishlardir. Bunday qonuniyatlar jumlasiga shakl va mazmun, og‘zaki va yozma nutq, til va nutq, nazariya va amaliyotning o‘zaro aloqadorligi kiradi. Qonuniyatlarga ko‘ra, til o‘qitish prinsiplari me‘yoriy talablar shaklida ishlab chiqiladi.

² Yuldasheva D.N. O‘zbek tilini o‘qitish metodikasi. – Buxoro: “Durdona” nashriyoti, 2021. 70-bet.

³ Roziqov O. v.bet. Ona tili didaktikasi. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2005. 9-bet.

⁴ Roziqov O. va bet. Ona tili didaktikasi. Darslik. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2005. 11-bet.

Nima o‘qitiladi? Ona tilidan ma’lumot va ta’lim mazmuni shu savolga ko‘ra aniqlanadi. Ma’lumot va ta’lim mazmunida tilning fonetikasi, leksikasi va grammatikasiga oid nazariy bilimlar hamda shu bilimlarga mos orfoepik, orfografik, uslubiy, punktuatsion, prosodik malakalar ko‘zda tutiladi.

Qanday o‘qitiladi? Ona tilidan ta’lim metodlari, usullari, vositalari shu savol bo‘yicha o‘rganiladi.

Ona tili ta’limi qanday tashkiliy shakllar asosida amalga oshiriladi? Ona tili didaktikasi shu savol bo‘yicha ta’limning tashkiliy shakllari (dars, uy ishi), turlarini, yakka (individual), guruh, jamoa asosida tashkil etish muammolarini tahlil etadi.

Yuqoridagi savollardan ko‘rinadiki, ona tili didaktikasi didaktika o‘rganadigan muammolarning barchasiga xususiylik nuqtayi nazaridan yondashadi. Tadqiq qilinadigan muammolarga ko‘ra, ona tili didaktikasi keng qamrovli fan bo‘lib, u maktabda tilning fonetik, leksik, grammatik tomonlari bo‘yicha nazariy ma’lumotlarni o‘zlashtirish, nazariy bilimlar asosida bolalarda nutq malakalarini shakllantirish masalalari bilan shug‘ullanadi.

Tilshunoslik tilimiz va o‘zbek tili birliklarining tizimiy imkoniyatlarini ochib beradi, ona tili ta’limi shu imkoniyatlardan samarali foydalanib, ayni bir axborotni yuzlab usul-u vositalar bilan ifodalash yo‘llarini, ulardan aniq bir sharoitda qay biri eng qulay va ta’sirchan ekanligini to‘g‘ri aniqlash va qo‘llashni o‘rgatadi. Ona tili o‘qitish metodikasi esa til imkoniyatlardan samarali foydalanish yo‘llarini umumlashma tarzda o‘rganadi va o‘rgatadi.

Pedagogik sikldagi fanlarning barchasi: “Tarbiya nima?, U qanday hodisa?, Qachon paydo bo‘lgan?, Tarbiya jarayonining ildizlari qaysi sarchashmalardan suv ichgan, tadrijiy taraqqiyoti qanday kechgan?, Ta’lim-chi?, U qanday jarayon?, Uning mohiyati nimada?, Bashariyatning davrlar silsilasidagi taraqqiyot darajasiga ta’lim-tarbiyaning nechog‘lik ta’siri bor?” kabi masalalar yechimi bilan shug‘ullanadi. Ushbu savollarga javob berish asosida insonning barcha taraqqiyot bosqichlaridagi faoliyati, hayot kechirishi, turmush tarzi, rivojlanish jarayoni faqat ta’lim-tarbiya negizida qurilganligini e’tirof etadi.

Ajdodlarimizning ta’lim-tarbiya borasidagi tarixidan ma’lumki, turkiy ta’lim-tarbiya tizimi o‘ziga xos bo‘lgan. Buni yozma yodgorliklar (V-IX asrlarga oid O‘rxun-Enasoy yodgorliklari)da bitilgan bitiklar mazmuni⁵dan ham, XII asrda yashab o‘tgan buyuk mutafakkir Mahmud Qoshg‘ariy IX-XI asrlarda turkiy yozuv nomi bilan mashhur bo‘lgan qadimgi uyg‘ur yozuvini sharhlab: “Uyg‘urlarning

⁵ O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan fan arbobi, akademik A.N.Kononov shunday yozadi: "O‘zining morfologiyasi va sintaksisi yuksak darajada rivojanganligi bilan qadimgi turkiy yodgorliklarning tili bizga yetib kulguncha uzoq adabiy an’anaga ega bo‘lganligidan dalolat beradi". (Кононов А. Н. Грамматика языка тюркских рунических памятников "VII – IX вв.". – Л.: Наука, 1980.)